

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Tibbiyot fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Bolalarda ichak mikrobiotasining shakllanishida ko‘krak suti bilan oziqlantirish davomiyligining ahamiyati va o‘rnini aniqlash hamda o‘tkir ichak infeksiyalarining erta oldini olishga oid yondashuvlarni takomillashtirish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarda ko‘krak suti bilan oziqlantirishning kech muddatda boshlanishi, oziqlantirish davomiyligining ichak mikrobiotasiga ta’siri va o‘tkir ichak infeksiyalarining rivojlanishida xavf omili bo‘lib xizmat qilishi aniqlanadi; - tadqiqotda ko‘krak suti bilan oziqlanish muddati turlicha bo‘lgan ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarda o‘tkir ichak infeksiyalarining anamnestik va klinik-laborator xususiyatlari tavsiflanadi; - o‘tkir ichak infeksiyalari va o‘tkir diareya rivojlanishining xavf omili sifatida ko‘krak suti bilan oziqlantirish davomiyligiga bog‘liq holda, o‘tkir ichak infeksiya bilan kasallangan ikki yoshgacha bo‘lgan va amalda sog‘lom bolalarning ichak mikrobiotasining taksonomik tarkibi va tuzilmasi tavsiflanadi; - ichak mikrobiotasining disbiozi shakllanishida qisqa muddatli ko‘krak suti bilan oziqlantirishning ahamiyati aniqlanadi; - bolalarda ichak mikrobiotasining shakllanishida o‘tkir ichak infeksiyalarini erta oldini olishga oid yondashuvlarni takomillashtirish bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligini muhofaza qilish xizmati faoliyatida sinovdan o‘tkaziladi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi amaliyotiga tatbiq etiladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligini muhofaza qilish xizmati hamda Sog‘liqni saqlash vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligini muhofaza qilish xizmati yoki Sog‘liqni saqlash vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.